

IBORALARNING SO‘ZLASHUV JARAYONIDA NUTQIMIZGA TA’SIR ETADIGAN O‘RNI

Saidov Islombek Valijon o‘g‘li

Filologiya va tillarni o‘qitish:

*Koreys tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

E-mail: islomv0603@gmail.com

Gadoyeva Asal Davlat qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish:

*Koreys tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

E-mail: lalisam0801@gmail.com

Annotation. *This article is covered on the basis of a topic that is equally necessary for everyone in the process of language learning, the importance of phrases belonging to the phraseology department of linguistics in the process of language learning and how effective and beautiful our speech is in terms of content. It is highlighted and analyzed with several examples.*

Key words: *Idiom, speech, speech effectiveness, phraseology, Korean expressions.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola til o‘rganish jarayonida barchaga birdek kerak bo‘ladigan mavzu asosida yoritilgan bo‘lib, tilshunoslikning frazeologiya bo‘limiga tegishli bo‘lgan iboralarning til o‘rganish jarayonida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi va nutqimizning ta’sirchan va chiroyli, mazmun jihatdan rang-barang bo‘lishiga yordam berishi haqida yoritilgan va bir qancha misollar bilan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ibora, nutq, nutq ta’sirchanligi, frazeologiya, koreys tili iboralari.*

Bugungi kunda til o‘rganishga bo‘lgan insonlardagi ehtiyoj oshib borayotgani barchamizga ma’lum. Hozirgi kunda barcha insonlar o‘zlari tanlagan sohalarining yetuk mutaxassisi bo‘lish maqsadida xuddi shu sohada rivojlangan, jahon miqyosida yuqori pog‘onlarni egallab turgan davlatlarga borib, o‘qib-o‘rganib, ma’lumotlarni esa aynan shu chet tilida qabul qilishayotgani ham tahsinga sazovordir. Til o‘rganish jarayonida tilshunoslikning frazeologiya bo‘limining ahamiyati biz uchun juda katta va biz bu bo‘limda nutqimizni yanada ta’sirchan va betakror qilishga yordami tegadigan iboralarni o‘rganishimiz mumkin.

Frazeologik iboralar o‘z ma’nodoshlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, ma’noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo‘lish, kishilarning xilma-xil harakat-

holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir²⁶.

Turg'un ibora bevosita nutq jarayonida hosil bo'lmaydigan, tilda bir butun holda mavjud bo'lib, shundayligicha nutqqa kiritiladigan so'z birikmasi yoki gapga teng jumla. Frazeologik ibora turg'un iboralarning ko'chma ma'noli, obrazli turi²⁷.

Har bir tilda iboralar bo'lgani kabi koreys tilining ham boy madaniyati va turmush tarzini ifoda etgan o'z milliy qadriyatlari asosida yaratilgan ko'plab iboralari mavjud va ushbu iboralarni quyida ayrimlari bilan tanishib chiqishimiz mumkin.

Iboralarning yana bir ajoyib xususiyati shundaki, biz nutqimizda so'zlar bilan hayajonlarimizni aniq va tiniq yetkazib bera olmay qolgan holatlarda iboralardan foydalanish bizga juda ham katta yordam beradi, ya'ni nutqimizni badiiy jihatdan boy va bo'yoqdor bo'lishini ta'minlab beradi.

물고기(의) 밥이되다 - suvga yiqilib o'lmoq ma'nosini bildiradi.

Misol: “멀쩡하게 나갔던 사람이 물고기 밥이되었더니 믿어지지 않아요”.

Butun boshli inson suvga yiqilib o'lganiga ishonolmayapman.

기름밥(을) 먹다 - zavod yo fabrikada orqali tirikchilik qilmoq ma'nosida keladi.

Misol: “기름밥을 먹고 사는 놈이 언제 돈을 모으겠어요”. Zavod orqali kun ko'radigan kishi qachon pul yig'ardi-yu.

김치 bilan bog'liq shunday ibora bor:

김치국(물)부터 마시다 - sherigining fikrini hisobga olmasdan o'z fikri bilan ish tutish, uni fikri bilan hisoblashmasdan o'z qarori bilangina ish tutish.

Misol: “그렇게 김치국물부터 마시다가 일이 뜻대로 되지 않으면 그 절망을 어떻게 감당하려고 그러냐”. Bunday sherigining bilan maslahatlashmasdan faqat o'z qaroring bilan qilingan ish aytganingdek bo'lmasa bu muvaffaqiyatni qanday qilib bo'yningga olasan?

Koreys tilida 떡 bilan bog'liq iboralar ham anchagina:

떡을 만들다 - ishni buzmoq, biron bir ish o'z xohlaganidek bitmasligini bildiradi.

Misol: “별 것도 아닌 녀석이 절난체만 하다가 이겨 놓은 경기를 떡을 만들어 놓았다”. Arziydigan biror narsani bilmaydigan bolapaqirlar o'ziga ortiqcha baho berishgani sabab yutilayotgan musobaqani beliga tepishdi (buzib qo'yishdi).

그림의 떡 - amalga oshmaydigan, yoki amalga oshishi qiyin bo'lgan narsa haqida gapirganda ishlatiladi.

Misol: “그 여자는 나에게 그림의 떡이야. 일찍 포기하는게 좋아”. Bu qiz man uchun bir xomxayol. Undan ertaroq voz kechganim yaxshi.

누워서 떡 먹기 - oson ish haqida gapirilganda foydalanish mumkin bo'lgan ibora hisoblanib hamirdan qil sug'urgandek degan ma'noni anglatadi.

²⁶ <https://fayllar.org/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar.html>

²⁷ <https://uz.wiktionary.org/wiki/ibora>

Misol: “그 정도 뛰어 넘는 것은 누워서 떡 먹기이다”. Bunaqa yugurib o‘tish juda osondir²⁸.

미역국을 먹다 - imtihondan yiqilmoq degan ma’noni anglatuvchi ibora hisoblanadi va ko‘proq tarjima qilingani kabi salbiy ma’noga ega gaplarda foydalaniladi. Aslida 미역국 - tug‘ilgan kunda tanovvul qilinadigan ovqat.

Misol: “올해가 취업 정년인데 마지막 시험에서 미역국을 먹었다”. Bu yil ish boshlamoqchiydim-u, imtihondan yiqildim-da.

구들장을 지다 - uyda ishsiz bekor yotmoq. Aslida, 구들장 - ondoldagi tutun o‘tish yo‘li ustiga qo‘yib foydalaniladigan katta tosh hisoblanadi.

Misol: “일이 틀어졌다는 소문이 나돌 때부터 그는 구들장을 지고 살았다”. Ish haqidagi biror mish-mish chiqib qolguncha u uyda bekor yotadi.

Mana shu yuqorida keltirilgani kabi qaysi bir chet tilini o‘rganishni niyat qilgan bo‘lmaylik, barcha tilning o‘z qadriyatlaridan kelib chiqqan iboralarni o‘rganish bizga faqat va faqat foyda ekanligini tushunib yetgan holda o‘zimiz o‘rganishni xohlagan tilimizdagi iboralarni o‘rganib qo‘yishimiz kerak.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI:

1. <https://fayllar.org/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar.html>
2. <https://uz.wiktionary.org/wiki/ibora>
3. Iboralar-maqola. Yusufjonova-Madinabonu. Toshkent. O‘zbekiston. P-3,4.

²⁸ Iboralar-maqola/Yusufjonova-Madinabonu.Toshkent.O‘zbekiston.